



## **PSIXOLOGIK TASHXISNING BUGUNGI KUNDAGI ASOSIY MUAMMO HAMDA IMKONIYATLARI**

**S.Eshilovov**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, kursanti

### **ARTICLE INFO**

Qabul qilindi: 25-July 2023 yil  
Ma'qullandi: 28-July 2023 yil  
Nashr qilindi: 03-August 2023 yil

### **KEY WORDS**

*Psixologik tashxis, psixik rivojlanish, pedagog, psixologiya*

### **ABSTRACT**

*Ushbu maqolada Psixologik tashxis haqida olimlarning fikrlari va uning bugungi kundagi asosiy muammo hamda imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.*

Mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi omillardan biri muntazam holda kadrlar salohiyatini oshirish hisoblanadi. Shuning uchun ham tayyorlanayotgan mutaxassislarning kasbiy salohiyati va kamolotini ta'minlash jamiyat oldidagi eng asosiy muammolardan biridir. Shu sababli uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida shaxsni tarbiyalash va unga zamonaviy ta'lim berishning xalqaro talablar darajasida yo'lga qo'yish muhim vazifa sifatida o'rin egallaydi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirishning o'ziga xos muammoli va murakkab tomonlari mavjud. O'tgan davr ichida jahonda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, va ayniqsa, siyosiy sohalarda kuzatilayotgan keskin o'zgarishlar va iqtisodiy sohadagi beqarorlik insonlarning dunyoqarashi, xulq-atvori, turmush tarzi va ularning kasbiy faoliyatiga ham ta'sir etib, katta o'zgarishlar yasash kerakligini taqozo etmoqda.

Tarbiyaviy tashkiliy – muayyan maqsadni ko'zlovchi xarakter kasb etgan hozirgi vaqtda, ota-onalar bolalarni tarbiyalashda faqat turmush tajribasi va xalq pedagogikasida berilgan maslahatlar bilan cheklanib qolmasliklari, balki umumiy pedagogika fanining qonunlariga ham tayanishlari kerak. Binobarin, tarbiyaviy ishda muvaffaqiyatlarga erishishning to'g'ri yo'lini ana shunda deb bilishlari lozim.

Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir. Chunki, ta'lim-tarbiyadan xabardor bo'lmagan ota-ona maktabga yaxshi yordamchi bo'la olmaydi. Ota va onalarning ta'lim-tarbiya berishni yaxshi bilmasliklari ko'p hollarda maktab bilan oilaning umumiy til topa olmasliklariga hamda ularning bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishlarida teskari natija berishiga olib keladi.

Respublikamiz xalq ta'limining zamonaviy tizimiga psixologik tashxis, psixolog maslahati va psixologik korreksiya kabi kategoriyalar kirib, mustahkam o'rnasha boshladi. Psixologik xizmatning bola shaxsi ravnaqi, uning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va himoyalash uchun amalga oshirilishiga shak-shubha yo'q, albatta.

Lekin, shu bilan birga, psixologiyaning psixologik tashxis sohasiga ziyon yetkazishi mumkinmi?- degan savol tug'ildi. Ha, agar ilmiy natijalarni amaliyotda qo'llash yetarlicha tajribaga ega bo'lmagan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilsa, ziyon yetkazishi mumkin.

Masalan, psixologik tashxis metodikalar yordamida olingan ma'lumotlarga foydalanuvchi tomonidan mutloq ma'no kasb ettirilishi o'z-o'zidan bolaning kelajagini belgilab beruvchi tashxisning qo'yilishiga olib keladi. Shu o'rinda L.S. Vigotskiyning «psixodiagnostikada tashxis qo'yilishi mumkin emas, psixologik diagnostika natijasi faqatgina tekshiriluvchining u yoki bu psixik jaryonini o'sayotganini bilish bo'lishi mumkin» degan ta'kidini esga olish maqsadga muvofikdir. Shu bilan birga, psixodiagnostikaga nisbatan umuman e'tiborsiz bo'lish kabi holatlar ham bor. Masalan, amaliy psixolog ko'pincha bola bilan faqatgina oila haqida olingan ma'lumotlargagina tayanib ishlaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan har ikki holat ham psixologik tashxis metodikalaridan foydalanuvchi shaxsning ushbu sohada nomutasaddi hamda bilimi yetarlicha emasligidan dalolat beradi.

Psixologik tashxis psixologiya fani sohasi bo'lib, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlovchi hamda o'lchovchi metodlarni ishlab chiqadi. Psixologik tashxisdan mustaqil soha sifatida foydalanish o'tgan asrning 2-yarmidan faollasha boshlangan. Psixologik tashxisning predmeti hamda yo'naltirilganligiga har xil mualliflar turlicha yondashganlar. Fundamental xarakterga ega bo'lgan ishlarda umumiy psixodiagnostika psixologik-pedagogik qurollarning tuzilishi va psixologik-pedagogik xulosalar shakllanishining metodologik, nazariy hamda uslubiy tamoyillari sifatida gavdalanadi. Bu asosan nazariyaga oid vazifa bo'lib, testologiyani fan sifatida bilishni va albatta, tekshiriluv-chining ruhiyatini o'rganishni taqozo qiladi. Masalan, bolaning matematik masalalarni yecha olmayotganligi ota-ona hamda o'qituvchini xavotirga soladi. Bunday qiyinchiliklar nafaqat ma'lum bir mavzuni bilmaslik kabi pedagogik muammolarga, balki ko'proq psixologik sabablarga ega bo'lishi mumkin. Balki, bolada aqliy faoliyatning ichki rejalashtiriluvchi yoki bor ma'lumotdan keragini ajrata bilish qobiliyati yetarlicha shakllanmaganidir. Bu muammoni hal qilish uchun, avvalambor, testlar yordamida bolaning bilim olishida yuz berayotgan qiyinchiliklar sababini aniqlash joiz.

Buning uchun psixolog yosh davrlari hamda pedagogik psixologiya, tafakkur psixologiyasi, psixodiagnostikani, testologiyani puxta bilishi va bu sohada professional bo'lishi kerak. Amaliy psixolog bo'lish bu nazariy bilimlarga ega bo'lmoq, test hamda maslahat mukammal o'tkazishni bilmoq demakdir.

Zamonaviy psixologik lug'atlarda tashxis tadqiqotlarning ikki turi ustida to'xtalib o'tiladi:

- a) test o'tkazish psixik rivojlanish darajasining miqdoriy baholash muolajasi sifatida;
- b) test o'tkazish birinchi o'rinda, psixologik tashxis — tekshiruvchi farazlar, keyin esa sub'ektning psixologik modellariga sifat jihatidan tavsif beruvchi kompleks psixologik tadqiqot sifatida.

Psixologik tashxis metodlardan to'g'ri foydalanishni o'rgatishga faqatgina oliy o'quv yurtlari talabalariga professional malaka berish orqali erishish mumkin. Afsuski, hozirda talabalar e'tiboriga test to'plamlari, uzoq borsa, javob kaliti bilan havola etilgan. Eng asosiy qism bo'lmish olingan ma'lumotlarning talqini hamda kerak bo'ladigan tavsiyalarning shakli esa bu to'plamlarda berilmagan. Natijada, talabalar hamda endi ish boshlagan amaliy

psixologlar murakkab ahvolda qolishadi. Sababi jiddiy ilm hisoblanmish psixologiyaning amaliy tarmog'i bo'lgan psixodiagnostika sohasi haqida muhim akademik ma'lumotlarga ega emaslar. Bugungi kunda psixologik testlarning ommabop bo'lib qolganligi tufayli bu to'plamlarni sotib olayotgan har bir kishi ulardan bimalol foydalanishi mumkinligi bizga sir emas. Testlarning osonlik bilan qo'lga kiritilishi va keng ommaga bildirilishi haqida juda ko'p zid fikrlar mavjud.

Test o'tkazish bo'yicha eng yuqori malakali mutaxassis A. Anastazi kelgusida testlar qo'llanuvining yaroqsiz bo'lib qolish xavfini nazarda tutib, ularning keng miqyosda chop etilishiga qarshi chiqadi.

Ko'pchilik pedagoglar va boshqa kasb egalari o'zlarini «psixolog» deb hisoblaydi. Shu o'rinda psixologiyaning kundalik hayotda va ilmda turlicha tushunilishi unutilib qo'yilmoqda. Maktab hayotida birgina sub'ekt xatti-harakatining nafaqat psixologik, pedagogik, balki, huquqiy, madaniy va ma'muriy jihatdan tahlil qilinishi mumkinligi ham taxmin qilinadi.

Faylasuf Ye.L. Freybergning quyidagi fikrini esga olish maqsadga muvofiq bo'ladi: «Jismoniy va ruhiy olamni anglash uchun ikki bir-biridan farq qiluvchi metod kerak bo'ladi; bir tomondan, inson yuzaki qarashda to'g'ri deb topadigan diskursiv, mantiqiy metod bo'lsa, boshqa tomondan, intuitsiyaning rivojlangan bo'lishi lozimligidir. Bu isbot talab qilmaydigan ikkinchi metod o'z o'rnida gnoseologik nuqtai nazardan fan va san'atning ruh va etika masalalarida bir xilligicha qoladi.»

L.S. Vigotskiy psixologiyadagi holatni bejiz inqirozli deb atamagan, inqiroz va uning kelib chiqishini u metodologiya muammolari bilan bog'lagan. Hech kim diskursiv, tabiiy ilmiy yondashuvning bilim olishdagi o'rnini inkor etmaydi. Lekin shu bilan birga V.P. Zinchenkoning «Rasmiylashgan, matematiklashtirilgan bilim namoyondalarining har qanday haqiqatga yetishish qobiliyatlariga bo'lgan ishonchi noo'rin», degan fikriga ham qo'shilish lozim. Psixologik tashxisning fan sifatida matematika va mantiqqa, ya'ni diskursiv yondashuvga tayangani uning shu darajada keng va erkin qo'llanilishiga asos soladimi? Faqatgina diskursiv analitik yondashuv yo'lida rivojlanayotgan psixologiya, psixologik tashxisning muhim amaliy qismidan ajralib, ko'proq psixologik amaliy solohiyatga ega sifatida o'z oldiga tadqiqot vazifasini maqsad qilib oldi.

Nazariya va amaliyot o'rtasida har doim ham ma'lum bir masofa bo'lgan. Lekin psixologiya va pedagogika fanida diskursiv-analitik metodning ustunligi natijasida, ushbu masofa butunlay uzilish darajasiga yetdi. Amaliyot va nazariya o'rtasidagi qarama-qarshilikni oladigan bo'lsak, ulardagi uzilish mutaxassislar fikricha, shu darajada sezilarli holga keldiki, inson haqidagi fanda hech narsa insonning o'zini eslatmay qoldi. Inson turli tashxis shakllar orasida sarson bo'lishiga qaramay, uning hayotiy zarur muammolari o'z yechimini topmay qolib ketmoqda. Bizdagi muammo esa, bir so'z bilan aytganda, bola psixologiyasini bilishga asoslanmagan sub'ektiv yondashuvning ustunligida. Ko'pincha psixolog lavozimida psixologik ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar faoliyat ko'rsatadi. Ushbu muammoni hal etish yo'llaridan biri sifatida mutaxassis-amaliyotchi psi-xologlarga test o'tkazishni o'rgatish bilan birga test natijalarini «o'qish», anglash hamda uni tahlili asosida tekshiriluvchilarning korreksion dasturini rejalashtirishni o'rgatishni bilishlari kerak.

Tajribali amaliyotchi psixolog psixologik sezgi va kasbiy uquvning faqatgina tajriba orqali orttirilishini tasdiqlaydi. Bizning fikrimizcha, psixologik tashxis qurollar bilan ishlash uquvining shakllanish jarayoni o'rganish predmeti bo'lishi lozim. Bu psixologik tashxisni, test

o'tkazishni o'rganish predmeti test o'tkazish jarayonini, test natijalarini tahlil qilish usullarini, olingan natijalar asosida psixologik tavsif jadvallarini shakllantirishni hamda korreksion ishlarning rejalashtirilishini qamrab olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Aynan shunday yondashuv psixologik xizmat obro'sini ko'taradi va xalq ta'limi tizimidagi muammolar yechimini topishga imkoniyat yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Юнг К.Г. Психологические типы. – М., 1966.
2. Айзенк Г., Вильсон Г. Как измерить личность. - , 2000.
3. Практическая психодиагностика. Методы и тесты. – Самара, 1998.

